YOSHLAR-YANGI O'ZBEKISTON VA UCHINCHI RENASANS BUNYODKORLARI

Mashxura Avazjanovna Muradova
Namangan tarixi va madaniyati davlat muzeyi
"Manaviyat" bo'limi mudiri

Kalit so'zlar: *Uchinchi renasans, Yangi o'zbekiston, Inson qadri, milliy yuksalish, barkamol avlod, vatanparvarlik, huquqiy madaniyat, mafkuraviy madaniyat, yoshlar;*

IX–XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan Birinchi Sharq Uyg'onish davrida ham, butun dunyoda "Temuriylar davri Renessansi" deya e'tirof etilgan XIV–XVI asrlardagi Ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ham jamiyatda e'tiqod mustahkam, insonlar dunyoqarashida ma'naviyat ustuvor, davlatchilik tuzumida ma'naviyat va ma'rifat yetakchi bo'lgan.E'tibor bersak, har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim jihat — davlatning e'tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta'lim-tarbiya ustuvor bo'lgan. Har ikki Renessans davrida davlat rahbarlari, olim-u fuzalolar, birinchi navbatda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati, imon-e'tiqodi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Bugun biz ana shunday qutlug' bir davrda, dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan tanilayotgan muqaddas zaminda Uchinchi Renessansga poydevor qo'yiladigan zamonda yashamoqdamiz. Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishgan. Jadidlar qatag'on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida ham turg'unlik davri boshlandi. Chunki ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilardi. Hech kim o‘z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning esa boshiga kulfat yog‘ilardi. Ushbu siyosat tufayli ko‘plab olimlar, shoir, yozuvchilar “tug‘ildi-yu bo‘g‘ildi”.Shukrki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday noxush holatlarga barham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladi. Barcha sohalarda xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqda ruhiy ko‘tarilish, kelajakka ishonch paydo bo‘la boshladi. Prezidentimiz rahnamoligida O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”.Agar O‘zbekiston Prezidentining keyingi to‘qqiz yilda ma’rifat, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Milliy strategiya va Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag‘zini to‘la chaqib ko‘rsak, navbatdagi ma’rifat Renessansining markazi O‘zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Bugungi yangi O‘zbekistonda yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam qilib tarbiyalanmoqda. Ular tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘chalar va maktablar tizimida ulkan o‘zgarishlarga guvoh bo‘lib turibmiz. Prezidentimiz boshchiligida bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni ta’minlash muhimligiga e’tibor qaratilmoqda.Yangi Renessansning bosh maqsadi — mamlakatni ravnaq toptirish, yurt farovonligiga erishish. Uchinchi Renessans — bu barcha soha va yo‘nalishlarda milliy taraqqiyot yo‘lining navbatdagi bosqichidir. Bu konsepsiya o‘ziga xos ”texnologik sakrash”ni,

yuqori darajada rivojlangan “smart” (aqlli) iqtisodiyotni nazarda tutadi. Shuningdek, u ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va ijtimoiy sohalarda jahon hamjamiyati bilan yanada faolroq, yanada kengroq integratsiyani taqozo qiladi.Uchinchi Renessans to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. O‘z navbatida, raqamli, ”mart” iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi.Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta’minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasida mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi belgilab berildi. Yangi texnologik bosqichga o‘tish va qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo‘yicha sanoatni rivojlantirish dasturi boshlanadi. 2026-yilda 52 milliard dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi. Kelgusi yilning o‘zida 14 milliard dollarlik 228 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushiriladi.Prezidentimiz nutqida mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlari ham aniq belgilab berildi. Xususan, O‘zbekiston iqtisodiyoti hajmini 240 milliard AQSH dollaridan oshirish maqsadi qo‘yilib, bu yangi rivojlanish bosqichiga o‘tish yo‘lida muhim strategik qadam sifatida baholandi. Unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonining izchil, amaliy va inson manfaatiga qaratilgan yo‘ldan davom etayotganini yaqqol ko‘rsatadi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishi va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun mustahkam zamin bo‘ladi.Yurtimiz yoshlari xorijiy oliygohlarda o‘qish uchun matematika, ingliz tili va ilmiy fikrlash bo‘yicha “SAT” imtihonini topshirayapti va ushbu testlarda 75 foizdan yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar chet elning eng nufuzli oliygohlariga grant yutayapti. Endi bunday yoshlarni o‘zimizning oliygohlarga ham grantga qabul qilamiz, dedi O‘zbekiston Prezidenti.Haqiqatan ham, yoshlar masalasi har

doim davlatimiz siyosati darajasidagi muhim masala bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko‘lamdagi imkoniyatlar, ularning o‘qib-o‘rganishlari, qizg‘in faoliyat ko‘rsatishlari uchun ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o‘ziga jalb etmoqda.Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini yuzaga chiqarish uchun har bir hududda zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ta’kidlaganidek, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.[1]

BMT Bosh Assambleyasi 1999-yil 17-dekabrdagi 54/120-sonli rezolyutsiya bilan Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug‘ullanuvchi vazirlar konferensiyasining 12-avgustni Xalqaro yoshlar kuni deb e’lon qilish haqidagi tavsiyasini ma’qullagan. Ushbu kunda jahon hamjamiyatining diqqat-e’tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi.Milliy qonunchiligimizga ko‘ra 30-iyun–O‘zbekistonda Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.Agentlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilandi. Agentlik, jumladan, yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.Farmon bilan O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir

[1] O’zbekiston strategiyasi-2030”,Yangi O’zbekiston va uchinchi reneccans bunyodkorlari tavsiyalar”,Toshkent-2024yil.

qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, O‘zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indekslari hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish belgilangan.Dasturda nazarda tutilgan tadbirlar Agentlik tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalar taqsimlash orqali moliyalashtiriladi.Shuni ham qayd etish kerakki, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari tuzilgani, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etilgani yurtimizda soha rivoji sari qo‘yilgan yirik amaliy qadamlar bo‘ldi. Yanada muhimi, ikki yillik konstitutsiyaviy islohot natijalaridir.Yoshlarimizga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim. Shu ma’noda, ayni masalaning yechimi ham mustahkam huquqiy poydevor – O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilishni taqozo etdi. Shu o‘rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan ilk marotaba uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojini ta’minlash davlatning vazifasi etib belgilanganini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Ta’limga oid normalar 50,51 va 52-moddalarda o‘z aksini topdi.Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g‘amxo‘rlik masalaasida o‘z zimmasiga g‘oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Shunday ekan, navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz “Yoshlar Konstitutsiyasi” deya e’tirof etilayotgani bejiz emas.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlod haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilar ekan, avvalo ular bizning tayanchimiz va ertangi kelajagimizning davomchilari ekanligi, yoshlarga oid qonunchilik tizimini zamon talablariga mos ravishda

takomillashtirish qulay huquqiy va tashkiliy iqtisodiy imkoniyatlar barpo qilish, ularning kasb-hunar o‘rganishlari, mehnat qilishlari, erkin ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish ishlari diqqat markazimizda turadi.Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi kelajak avlodga, yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas.Ishonchimiz komilki, yurtimizda boshlangan bu yangilanishlar izchil davom etadi va xalqimiz orzu qilgan buyuk davlat, farovon kelajak barpo etishda mustahkam poydevor bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.O’zbekiston strategiyasi-2030,”Yoshlar Yangi O’zbekiston va Uchinchi Renessans bunyodkorlari”,Toshkent-2024yil.

2.Shavkat Mirziyoev-Yangi O’zbekiston strategiyasi

3.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti-www president.uz